

2. Бурбонова М. А. Формирование мясности куйбышевских овец в онтогенезе. Автореф. дисс. к.с.х.н. Дубровицы. 2004. 25 стр
3. Турганбаев Р.У. Каракалпакский породный тип каракульских овец окраски сур. Монография. Тошкент 2012, 164-бет.
4. Укбаев Х. И. Казахская каракуль – курдючная порода овец. Сб. матер. научно– практической конф. Самарканд 2019. 139-140 стр.

## **QORAQALPOQ ZOT TIPIGA MANSUB QAMAR RANGBARANGLIKDAGI QORAKO‘L QO‘ZILARNING TIRIK VAZNNING MUTLAQ, NISBIY VA KUNLIK O‘SISH DINAMIKASI**

**Astankulov A., Ibragimov T., Hasanboyev T.,  
Matnazarova M. Bakturdiyeva Sh.**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar  
universiteti Nukus filiali

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qamar rangbaranglikdagi qo‘zilarning tirik vazni, mutlaq, nisbiy va kunlik o‘shish dinamikasi o‘rganildi va tavsiyalar berildi.

**Kalit so‘zlar.** qamar rangbaranglik, tirik vazn, nisbiy, mutlaq va kunlik o‘sim

**Kirish.** So‘ngi yillarda jahon miqyosida qorako‘lchilik sohasida rangli terilarga, aynan sur rangli terilarga ichki va tashqi bozorlarimizda talab ortib bormoqda. Shu bois, qorako‘l qo‘ylari urchitiladigan mamlakatlarda aholining qorako‘l terilariga va qorako‘lchilik mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish maqsadida, sur rangli turli rang-baranglikdagi qorako‘l qo‘zilar salmog‘ini mumkin qadar oshirish bilan bir qatorda, qo‘chqorlarning geneotipini yaxshilash borasida bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. [1] o‘z tadqiqotlarida qo‘ychilikda duragay avlodlar olish muhim hisoblanib, geterozis natijasida duragay avlodlarda qimmatli mahsuldor xususiyatlar shakllanishiga olib kelishi takidlanadi. Bunday analogik tadqiqotlar romanov zotli qo‘ylarini chatishtirishdan olingan avlodlarda Rossiya olimlari tomonidan [3], kuzatilgan. Muallif xulosiga ko‘ra, qo‘ylarning birinchi, ikkinchi va uchinchi bo‘g‘in avlodlarida jadal o‘shish ko‘rsatkichlari kuzatilib, mutloq va nisbiy o‘shish tezligi yuqori ekanligi qayd etiladi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Qoraqalpoq tipiga mansub qamar rang-baranglikdagi qorako‘l qo‘ylarining tirik vaznining mutlaq, nisbiy va kunlik o‘sim ko‘rsatkichlarini ilmiy asoslash.

**Tadqiqotning obekti sifatida.** Qoraqalpoq zot tipiga mansub sur qorako‘l qo‘ylarining kamar rang-barangliklaridagi qo‘zilar olindi.

**Tajriba joyi va usullari:** Tadqiqotlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Shimoliy Qizil-qum xududlari bo‘lgan Qorao‘zak tumanining qorako‘lchilikka ixtisoslashgan “Nurtilek qaraozek” fermer xo‘jaligida olib borildi.

Qorako‘l qo‘zilarining tirik vazni tug‘ilganda laborotoriya tarozisida aniqlandi, yoshi kattargandan so‘ng platformali elektron tarozida 0,1 kg gacha aniqlikdagi o‘lchash yo‘li bilan aniqlandi. Tajribadagi qo‘zilarning tug‘ilgan

vaqtdagi, 4-4,5 oylik, 12 va 18 oylik yoshidagi mutloq, nisbiy va kunlik o'sishi ko'rsatkichlari, o'sish tezligi o'rganildi.

**Asosiy qism.** Qorako'l qo'ylarining mutlaq, nisbiy va kunlik o'sishi ko'rsatkichlari organizmning o'sish jadalligini o'rganishda muhim hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar qo'ylarning fiziologik holatini boshqarishda, semizlik darajasi to'g'risida fikr yuritishga, yaylovlar hosildorligiga baho berishda va nihoyat qo'shimcha oziqlantirishni tashkillashtirishdan xabardor qiladi.

Bizning olib borgan tadqiqot natijalari bo'yicha qamar rangbaranglik qo'ylarning turli variatsiyasida o'sish tezligi aniqlandi va bu ko'rsatkichlar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.


1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarda tug'ilgandan 4-4,5 oygacha bo'lgan davrda mutlaq o'sish ko'rsatkichlari ochiq qamarda  $21,5 \pm 0,51$  kg.ni tashkil qilgan bo'lsa, qizil qamarda  $22,13 \pm 1,02$  kg. va qora qamar esa  $22,44 \pm 0,95$  kg.ni tashkil qildi.

**1-jadval**

**Tirik vaznning mutlaq, kunlik o'sishi ko'rsatkichlari**

Qamar variatsiyalari	n	O'sish ko'rsatkichlari	Tajriba hayvonlari yoshi		
			Tug'ilganda n 4-4,5 oygacha	4-4,5 oydan 12 oygacha	12 oydan 18 oygacha
			(X±S <sub>x</sub> )		
Ochiq qamar	25	Mutlaq o'sish, kg	21,5±0,51	6,51±0,95*	5,23±1,18
		Kunlik o'sish, g	169,36±7,31	27,86±3,58*	29,05±6,57
Qizil qamar	25	Mutlaq o'sish, kg	22,13±1,02	4,89±0,96	4,85±1,14
		Kunlik o'sish, g	173,42±4,87	21,04±3,66	26,94±6,48
Qora qamar	25	Mutlaq o'sish, kg	22,44±0,95	5,03±1,12	4,62±1,01
		Kunlik o'sish, g	175,97±3,59	21,7±4,39	25,66±5,61

Bunday ko'rsatkichlar kunlik o'sish ko'rsatkichlarida ham saqlanib qoldi va mutlaq o'sish ko'rsatkichlarini to'lig'icha tastiqlaydi. Qamar rangbaranglik variatsiyalari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichi ma'lumotlari 1-rasmda umumlashtirilgan.



**1-rasm. Qamar variatsiyalari bo'yicha mutlaq o'sish o'rtacha ko'rsatkichi**

Olingan ma'lumotlarni tahlil qilsak (1-rasmda), tug'ilgan davridan 4-4,5 oygacha bo'lgan davrigacha qo'zilar tirik vazni o'sishi (22,08 kg.) jadal kechishi va 4-4,5 oydan 12 oygacha davrda (5,84 kg.), sekinlashishi kuzatiladi. 12 oylik davridan 18 oylik davrigacha mutlaq o'sishning juda sekinlashishi (4,9 kg.) kuzatildi. Bizning fikrimizcha, tug'ilgan davridan 4-4,5 oygacha bo'lgan davrigacha qo'zilar tirik vazni jadal kechishi sut emish davriga to'g'ri kelishi va keyingi yoshlarda sekinlashishi ularning yaylov ozuqasiga o'tishi bilan isbotlanadi.

Mutlaq va kunlik o'sish ko'rsatkichlari nisbiy o'sishni ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'lib, qo'zilarning yosh dinamikasi bosqichlarida o'sish ko'rsatkichlarini belgilaydi. Ma'lum davr ichida jadal yoki o'sish ko'rsatkichlarining susayishini ko'rsatadi va bu ko'rsatkichlar ularning semizlik darajasini baholashda va saqlashda imkoniyat yaratadi. Nisbiy o'sim ko'rsatkichlari bo'yicha tajriba ma'lumotlari 2-jadvalda keltirilgan.

**2-jadval**

**Nisbiy o'sish o'rtacha ko'rsatkichlari, %**

Rangbar anglik	n	Tajriba hayvonlari yoshi					
		Tug'ilgandan 4-4,5 oygacha		4-4,5 oydan 12 oygacha		12 oydan 18 oygacha	
		( $X \pm S_x$ )	%	( $X \pm S_x$ )	%	( $X \pm S_x$ )	%
Ochiq qamar	25	21,5±0,51	599,63	6,51±0,95	26,0	5,23±1,18	16,6
Qizil qamar	25	22,13±1,02	626,78	4,89±0,96	19,13	4,85±1,14	15,87
Qora qamar	25	22,44±0,95	597,3	5,03±1,12	19,3	4,62±1,01	14,81

2-jadval ma'lumotlari shundan darak beradiki, tug'ilgan davrdan 4-4,5 oylik davrigacha nisbiy o'sish ko'rsatkichlari jadal kechganligidan va keyingi yoshlarda, yaniy 4-4,5 oydan 12 oygacha sekinlashishi kuzatilsa, 12 oydan 18 oygacha davrda o'sish suratlari ochiq qamarda 16,6 %, qizil qamarda 15,87 % va qora qamarda 14,81 %ni tashkil etdi.

**Xulosa.** Ochiq qamar rangbaranglikdagi tajriba hayvonlari yosh dinamikasida mutlaq o'sim ko'rsatkichlarini 100 % deb qabul qilinsa, qizil qamarda tug'ilgandan 4-4,5 oygacha bo'lgan davrda 2,93 %ga, qora qamarda 4,37 %ga ustunlik qilgan, 4-4,5 oydan 12 oygacha davrdagi mutlaq o'sish shunga mos ravishda -2,4 va -3,9 %ga tendetsiya saqlanib qolgan. 12 oydan 18 oygacha bo'lgan davrda bu ko'rsatkich shunga mutanosib ravishda -7,26 va -11,7 %ga farqlanishlar bo'ldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ахметшиев А.С. “Селекционные генетические основы создания племенного стада каракульских овец каракалпакского сура в Казахстане”. Дисс. докт. с/х наук. Алма-Ата, 1989, С.285.

2. Сатторов С.Б. ва бошқалар “Сур қоракўл кўчқорлар авлодида гулларнинг айрим хусусиятлари” «Chorvachilik va naslchilik ishi» jurnali №2 (19) 2021-yil 23-24 betlar

3. Турганбаев Р. У. «Продуктивные и биологические особенности овец сур каракалпакского породного типа оригинальных расцветок урюк-гуль и камар» Автореферат Диссертации на соискание ученой степени кандидата сельскохозяйственных наук. – Ташкент – 1993, с.23.

4. Плохинский Н. А. Наследуемость и повторяемость. Генетические основы селекции животных. Москва. Наука. 1970. – с. 64-73.

5. Юсупов С. Ю. ва бошқ. Қоракўлчиликда наслчилик ишини юритиш ва кўзиларни баҳолаш (бонитировка қилиш) бўйича кўлланма. –Тошкент, 2015, 31 бет.

## **QAMAR VARIATSIYALARIDAGI QO‘ZILAR TERISIDA IFODALANISHI, TOVLANISHI, VA GULLARNING BIR TEKISLILIK KO‘RSATKICHLARI**

**Astankulov A.F., Pirmanova M., Urazimbetova Sh. Esamboev S.**  
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar  
universiteti Nukus filiali

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qoraqalpoq zot tipiga mansub qamar rang-baranglikdagi qorako‘l qo‘ylarining variatsiyalar kesimida teri ko‘rsatkichlari keltirilgan bo‘lib, barcha guruhlarda terilarning ifodalanishi, tovlanishi va gullarning bir tekislik ko‘rsatkichlari aniqlangan. Olingan tajriba ma‘lumotlari bo‘yicha tahlil qilingan va xulosalar berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Qamar variatsiyalari, teri ko‘rsatkichlari, ifodalanishi, tovlanishi va gullarning bir tekisligi.

**Kirish.** Qoraqalpoq sur qorako‘l terilari assortimentida qamar rang-baranglik sur terilari ichida qizil qamar o‘zining nafisligi, yorqinligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun qoraqalpoq sur qamar terilarida ifodalanishi, tovlanishi va gullarning bir tekisligi ko‘plab belgilar va xususiyatlarni o‘z ichiga olgan kompleks ko‘rsatkich hisoblanib, terining sifatini va qolaversa uning sinfini belgilovchi xususiyat hisoblanadi.

[1] izlanishlarida, rang-baranglikning namoyon bo‘lishi jun tolasining tovlanishiga bog‘likligini aniqlagan holda jumladan, o‘rikgul rang-barangligida surlik darajasi yaxshiroq namoyon bo‘lgan. Sur rangli qorako‘l qo‘ylarining jun tolasining surlik darajasini hisobga olgan holda, juftlashda [2] bu ko‘rsatkich bo‘yicha, olingan avlodlarda 63,4-76,7 %-gacha namoyon bo‘lishi aniqlangan. Avlodlarda rang xususiyatlarini yaxshilashda qo‘ylar surlanish darajasi bilan uzviy bog‘likligini va bu holatni selektsiya jarayonida foydalanish zarurligini aytadi [3].

**Tadqiqotning maqsadi.** Qoraqalpoq zot tipiga mansub qamar rang-baranglikdagi qorako‘l qo‘ylarining teri xususiyatlarini o‘rganish hamda maqsadga muvofiq rang-baranglikdagi qo‘zilar olish salmogini ko‘paytirish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot joyi va usullari.** Tadqiqotlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qorao‘zak tumani qorako‘lchilikka ixtisoslashgan “Nurtilek qaraozek” fermer xo‘jaligida olib borildi.